

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RO‘ZIYEVA SAODAT HASANOVNA

TALABALARDA TALAFFUZ KO‘NIKMALARINI MULTIMEDIA
VOSITALARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH
(ingliz tilini o‘qitish misolida)

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
pedagogical sciences**

Ro'ziyeva Saodat Hasanovna

Talabalarda talaffuz ko'nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish metodikasini takomillashtirish (ingliz tilini o'qitish misolida)5

Рузиева Саодат Хасановна

Совершенствование методики формирования у студентов навыков произношения на основе мультимедийных средств (на примере преподавания английского языка)23

Ruzieva Saodat Khasanovna

Improving the methodology for developing pronunciation skills in students using multimedia tools (based on the example of teaching English)47

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....51

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RO‘ZIYEVA SAODAT HASANOVNA

**TALABALARDA TALAFFUZ KO‘NIKMALARINI MULTIMEDIA
VOSITALARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH METODIKASINI
TAKOMILLASHTIRISH
(ingliz tilini o‘qitish misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

**PEDAGOGIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida №B2023.4.PHD/Ped6531 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Olimov Shirinboy Sharofovich
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Kurbanova Gulnoz Negmatovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Fayzullayev Otabek Muxammadovich
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi PhD.03/2025.27.12.Ped.08.05 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil 5-mart soat 11.00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14; faks: (0 365) 221-57-27; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (826-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy. Tel.: (0 365) 221-29-14)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 20-fevral kuni tarqatildi.

(2026-yil 20-fevraldagi 19-raqamli reyestr bayonnomasi)



N.B. Ataboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Y.B.Ro‘ziyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, filologiya fanlari doktori (DSc),
dotsent

Z.I. Rasulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi o‘rinbosari,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda amalga oshirilayotgan islohotlarning ta'lim taraqqiyotidagi pirovard maqsadi – har bir mamlakatning iqtisodiyotini rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqish va shu orqali xalq farovonligini ta'minlashdan iborat. Zamonaviy ilmiy-texnika taraqqiyoti fan va ishlab chiqarish sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda ilmiy-texnikaning jadal rivojlanishi ta'lim jarayonlarini takomillashtirishni taqozo etmoqda. Xususan, Lancaster University (Buyuk Britaniya), University of Reading (Buyuk Britaniya), Beijing Language and Culture University (Xitoy) kabi oliy ta'lim muassasalarida xorijiy tillarni o'qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish, ta'limda multimedia vositalaridan samarali foydalanish talabalarida zamonaviy bilim, ko'nikma va kompetensiyalar shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydi.

Dunyo innovatsion ta'lim amaliyotida multimedia vositalaridan foydalanish orqali talabalarning to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish, mustaqil o'quv-amaliy faoliyatini yo'lga qo'yish imkoniyatlari yaratilmoqda. Bunda multimedia vositalari orqali o'quv jarayonini vizual, eshitiluvchi va interaktiv shakllarda tashkil etish orqali talaba shaxsining bilish faoliyati faollashadi, tilni o'rganishga qiziqishi ortib, olingan bilimlarning barqarorligi ta'minlanadi. Shu nuqtayi nazardan tadqiqot mavzusining dolzarbligi, avvalo, xorijiy tillarni samarali o'qitish, talabalarida to'g'ri talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirish va zamonaviy axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish orqali ta'lim sifati hamda samaradorligini oshirish zarurati belgilanadi.

Mamlakatimizda keyingi yillarda ta'lim tizimini takomillashtirishning hozirgi axborotlashgan bosqichida oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etish imkoniyatlari sezilarli darajada ortib bormoqda. Jumladan, ta'lim sohasida axborot texnologiyalarini joriy etish, o'quv materiallarini vizual va multimedia vositalari orqali taqdim etish, shu asosda talabalarning bilish faoliyatini kuchaytirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Vaholanki, talabalarida talaffuz ko'nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish metodikasini takomillashtirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Mazkur yo'nalishdagi izlanishlar nafaqat xorijiy tillarini o'qitish samaradorligini oshirish, balki talabaning kelgusi kasbiy faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmonining "Yoshlarga oid davlat siyosati va sport yo'nalishlaridagi islohotlar: yoshlarni zamonaviy kasblar va chet tillariga o'qitish tizimini yaratish" nomli 1.4-bandi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 19-yanvardagi 34-son "Xorijiy tillarni o'rganishni takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2017-yil 11-avgustdagi 606-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitishning sifati yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2019-yil 19-iyuldagi 606-son "Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini

takomillashtirish to‘g‘risida” qarorlari va mazkur faoliyatga doir boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda so‘nggi yillarda ingliz tilini o‘qitishda talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda multimedia vositalaridan foydalanish masalasi keng tadqiq etilmoqda. Jumladan, S.Maxammadaliyeva, S.Azimov, T.Q.Sattorov, M.M.Vahobov, D.U. Hashimova, G.A.Asilova, J.E.Usarov, B.Raxmonov, I.B.O‘tayeva, J.Jalolov, M.Choriyev, M.G‘apporov, I.V.Rahmonov, H.T.Mustafayeva, A.A.Isoqov, S.A.Misirov, M.Y.Jusupov, D.X.Xolmurodova, F.N.Rahimova, G.X.Bakiyeva, L.T.Axmedova, N.P.Babaniyazova, M.R.Muhiddinova, Sh.T.Xalilova, F.A.Shirinova kabi olimlarning tadqiqotlarida ingliz tili talaffuzini o‘rgatishda vizual va audio-texnologiyalarning ahamiyatiga alohida e‘tibor qaratib, o‘quvchilarning fonoakustik sezgirligini rivojlantirishda interaktiv dasturlar va multimedia platformalarining samaradorligi tadqiq etilgan.

MDH olimlaridan N.D.Galskova, A.A.Leontev, I.A.Zimnya, I.K.Bekasov, O.A.Vasilenko, L.A.Verbitskaya, M.V.Maso, L.I.Pechinskaya, O.V.Flerova, A.V.Schepilova, N.I.Almazovalar tadqiqotlarida til o‘rganuvchilarga talaffuz me‘yorlarini singdirishda mobil ilovalar, interaktiv platformalar va virtual sinflardan foydalanishning natijadorligi, ikkinchi til sifatida ingliz tilini o‘rganuvchilar uchun samarali ekanligiga alohida e‘tibor qaratilgan.

Xorijlik olimlardan J. Morley, M. Pennington C. Chen (Xitoy), S. Lee (Janubiy Koreya) va Y. Zhang (Singapur) tadqiqotlarida multimedia asosida talaffuz me‘yorlarini singdirish jarayonida nutqni segment va suprasegment darajada rivojlantirish, talaffuz mashqlariga oid video va audiomateriallardan foydalanish, fonetik laboratoriyalarni ta‘limga tatbiq etish muhim ilmiy yondashuv sifatida ko‘rsatilgan. Zotan, pedagogik adabiyotlarda ushbu mavzu mohiyatining ba‘zi jihatlari ochib berilgan bo‘lsa-da, talabalarda talaffuz ko‘nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, zamonaviy texnologiyalar asosida vizuallashtirishning amaliy-texnologik tizimini takomillashtirish kabi masalalarga monografik planda yondashuv dolzarblik kasb etadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Ta‘lim tizimini kompleks raqamlashtirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish mexanizmlari” (2022-2026-yy.) nomli ilmiy-tadqiqot rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi oliy ta‘lim muassasalari talabalarida talaffuz ko‘nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish hamda rivojlantirish

metodikasini takomillashtirish va shu asosda taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

oliy ta'lim muassasalari talabalarida talaffuz ko'nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish va rivojlantirishga oid innovatsion o'qitish g'oyalarini tahlil qilish orqali metodik imkoniyatlarni aniqlashtirish;

talabalarda talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning pedagogik shart-sharoitlarini belgilash, ularning samaradorligini ta'minlovchi didaktik tamoyillarni umumlashtirish;

oliy ta'lim muassasalari talabalarida talaffuz ko'nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish natijadorligini belgilovchi modelni takomillashtirish;

taklif etilgan metodikaning samaradorligini tajriba-sinov ishlari orqali matematik-statistik tahlil qilish va metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida oliy ta'lim muassasalari talabalarida talaffuz ko'nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish va rivojlantirish jarayoni tanlab olingan (Tajriba-sinov ishlariga Buxoro, Qarshi davlat universiteti hamda Urganch davlat pedagogika institutidan 706 nafar talaba jalb etilgan).

Tadqiqotning predmetini talabalarda talaffuz ko'nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish va rivojlantirishning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari sifatida tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya, modellashtirish, diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik tajriba-sinov va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash) kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz tilini o'qitish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari multimediali ilovalarning tuzilishi va mazmunini ta'limiy vazifalarning talablarga mosligi hamda o'qitishning "obyekt-obyekt", "obyekt-subyekt" individual xususiyatlarini integratsiyalash asosida aniqlashtirilgan;

talabalarda talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish jarayoni Viki-texnologiyasi, "Mind Map", "Fishbone" va "Select location" kabi interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlarini prognozlash asosida takomillashtirilgan;

talabalarida talaffuz ko'nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish modeli ingliz tilini o'qitishda nazariy va amaliy mashg'ulotlar natijadorligini oshirishga qaratilgan tezkorlik va virtuallashtirish, axborotli-tadqiqotchilik didaktik-vektorlik tamoyiliga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan;

oliy ta'lim muassasalari talabalarida talaffuz ko'nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish va rivojlantirish samaradorligi yaratilgan multimediali ilovalar pedagogik tahlil komponentlarini integrativ o'qitish mazmunini to'ldirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

multimediali ilovalarning tuzilishi va mazmuniga, yaratish mezonlari va bosqichlariga qo'yiladigan pedagogik talablar takomillashtirildi hamda oliy ta'lim

muassasalari uchun “Assesement of integrated skills” nomli o‘quv qo‘llanma ishlab chiqilgan va oliy ta’lim muassasalarida “O‘qish va yozuv amaliyoti” hamda “Til aspektlari amaliyoti” fanlaridan multimediali ilovalar yaratildi; “Nutq ko‘nikmalari integratsiyasi” fani uchun “Multitask” (“Ko‘p vazifalilik”) (<https://multitask.uz/admin/home/>) nomli platforma yaratilgan hamda pedagogik dasturiy mahsulotlar amaliyotga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi olingan natijalar, xulosalar va tavsiyalarning ishonchliligi va asosliligi, o‘quv materiallarini dasturiy vizuallashtirish texnologiyasi tuzilmasiga muvofiq olingan natijalarning ko‘pqirrali ekspertizasi natijasida multimediali o‘quv materiallari bilan ishlash tajribasini shakllantiradigan, talabalarda talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida multimedia vositalarining xususiyatlarini e‘tiborga olgan holda tadqiqotning xilma-xilligi bilan ta‘minlanishi, nazariy va empirik tadqiqot metodlarining turlixilligi, pedagogik tajriba-sinovning davomiyligi, bashorat qilingan natijalar va olingan eksperimental ma‘lumotlarning mosligi samarali tajriba-sinov o‘tkazilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati oliy ta’lim muassasalarida ta’lim jarayonini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari, ingliz tilidan o‘quv materiallarini multimediali vizuallashtirish texnologiyasini rivojlantirish bo‘yicha tayanch g‘oyalar aniqlandi va uni o‘quv jarayonini texnologiyalashtirishning mavjud tushunchalarini ta’lim jarayonida amalga oshirish shartlari, o‘quv materiallarini multimediali vizuallashtirish texnologiyani ko‘rib chiqishning har bir bosqichida maqsadli va tizimli ravishda vizual o‘quv materiallari bilan mustaqil ravishda ishlash tajribasini shakllantirishni izchil amalga oshirishga imkon berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati axborot-muhiti yondashuvning ayrim masalalari tanlangan faoliyatning o‘ziga xos xususiyatlarini, shuningdek, ta’lim subyektlarining shaxsiy xususiyatlarini, afzalliklarini e‘tiborga olgan holda mashg‘ulotlar samaradorligini oshirish yo‘llarini ochib berishi, ko‘rgazmalilik prinsipini amalga oshirish masalalari zamonaviy vizuallashtirish texnologiyasidan foydalanish, ularni tasniflash asoslari nuqtayi nazaridan to‘ldirilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida talaffuz ko‘nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish va rivojlantirish metodikasini takomillashtirish yuzasidan ishlab chiqilgan metodik va amaliy takliflar asosida:

ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari multimediali ilovalarning tuzilishi va mazmunini ta’limiy vazifalarning talablarga mosligi hamda o‘qitishning “obyekt-obyekt”, “obyekt-subyekt” individual xususiyatlarini integratsiyalashga oid xulosalaridan Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida bajarilishi 2020-2022-yillarga mo‘ljallangan P3-202005236 raqamli “Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish” mavzusidagi amaliy loyihani bajarishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 20-oktabr 2025-yildagi 01-11-05/6489-son ma‘lumotnomasi). Natijada talabalarda talaffuz ko‘nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish texnologiyalarini

takomillashtirishga oid o'quv-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish imkoniyati yaratilgan;

talabalarda talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonida multimedia vositalaridan foydalanish jarayoni Viki-texnologiyasi, "Mind Map", "Fishbone" va "Select location" kabi interfaol metodlardan foydalanish imkoniyatlarini prognozlashga oid taklif va tavsiyalar "Assesement of integrated skills" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 485-son buyrug'i asosidagi 157719-raqamli guvohnoma). Natijada keng amaliyotga tatbiq etilgan o'quv qo'llanma talabalarda talaffuz ko'nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish va rivojlantirish borasidagi manbalar hamda resurslar fondining kengayishiga xizmat qilgan;

talabalarida talaffuz ko'nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish modeli ingliz tilini o'qitishda nazariy va amaliy mashg'ulotlar natijadorligini oshirishga qaratilgan tezkorlik va virtuallashtirish, axborotli-tadqiqotchilik didaktik-vektorlik tamoyiliga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan metodlar "Assesement of integrated skills" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 485-son buyrug'i asosidagi 157719-raqamli guvohnoma). Natijada mazkur o'quv qo'llanma talabalarda talaffuz ko'nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish va rivojlantirish bilan aloqador amaliy hamda seminar mashg'ulotlarining amaliy-metodik jihatini takomillashtirishga xizmat qilgan;

oliy ta'lim muassasalari talabalarida talaffuz ko'nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish va rivojlantirish samaradorligi yaratilgan multimediali ilovalar pedagogik tahlil komponentlarini integrativ o'qitish mazmunini to'ldirish asosida takomillashtirilgan taklif va xulosalar ingliz tili darslari uchun yaratilgan multimediali ilovaga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 23.10.2025-yil yildagi 02/01-01-417-son ma'lumotnomasi). Natijada oliy ta'lim muassasalari talabalarida talaffuz ko'nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish va rivojlantirish natijadorligi yaratilgan multimediali ilovalar asosida pedagogik tahlil komponentlarini ishlab chiqish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokomadan o'tkazildi.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi yuzasidan jami 19 ta ilmiy-usuliy ishlar chop etilgan, shundan, 1 ta o'quv qo'llanma, dasturiy mahsulotlar uchun Intelektual mulk agentligidan 1 ta mualliflik guvohnomasi olingan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan, 1 tasi xorijiy jurnalda 5 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslab berilgan; tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari, ilmiy yangiligi, amaliy natijalari va ularning ishonchliligi, natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati, joriylanganligi, aprotatsiyasi, natijalarining e'lon qilinganligi, tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan birga, mazkur ilmiy ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan.

Dissertatsiyaning **“Talabalarda talaffuz ko'nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida talabalarda talaffuz ko'nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish va rivojlantirish metodik muammo sifatida tavsiflanib, talabalarda talaffuz ko'nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ochib berilgan. Shuningdek, ushbu bobda talabalarda talaffuz ko'nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish va rivojlantirishning mavjud holati izohlangan.

Ingliz tili bugungi kunda xalqaro muloqot, ta'lim, ilm-fan va texnologiya sohalarida muhim ahamiyat kasb etayotgan tillardan hisoblanadiku, bunda talabalarni mazkur tilni mustahkam egallashga yo'naltirish, ularning talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Xususan, oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun ingliz tilini o'rganish jarayoni nafaqat lug'at boyligini oshirish, grammatik qoidalarga rioya qilish, ularning lingvistik jihatdan keng qamrovli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishini talab etadi. Talaffuz ko'nikmasini rivojlantirish esa, talabalarning muloqotga tayyorligini oshirish, og'zaki va yozma nutqini shakllantirish, turli kontekstlarda tildan to'g'ri foydalana olishiga zamin yaratadi. Demak, ingliz tili darslarida talabalarning talaffuz ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Xorijiy tilni o'qitish jarayonida talaffuz ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishdan asosiy maqsad – bo'lajak mutaxassislarda kundalik hayotlari, ilmiy va kasbiy faoliyatlarida chet tili yoki bir necha tillardan erkin foydalanuvchi kadrlarni tayyorlash, shuningdek, sohaga oid ilmiy mavzularda mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar ilgari suriladi:

talabalarning nutqiy (o'qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish), til (leksik, grammatik), ijtimoiy-madaniy va pragmatik kompetensiyalarini malaka talablariga mos rivojlantirish;

ilmiy, kasbiy va kundalik faoliyat bilan bog'liq mavzular yuzasidan o'z fikrlarini og'zaki va yozma ravishda bayon etish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish;

talabalarni umumbashariy va milliy qadriyatlar bilan tanishtirish, madaniyatlararo bag'rikenglik va millatlararo hamdo'stlik hislarini singdirish;

ilmiy va kasbiy faoliyatda qo'llaniladigan termin va atamalar mohiyatini anglashga o'rgatish;

talabalarning ilmiy va sohaviy yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarini tashkil etish.

Ingliz tilida ravon va to‘g‘ri gapira olish ko‘nikmasi bugungi globallashtirish davr talabalari uchun muhim kompetensiyalardan biridir. Og‘zaki nutq (speaking) ko‘nikmasini shakllantirish va rivojlantirish esa, chet tilini o‘rganuvchilar uchun eng qiyin jihatlardan biridirki, bu borada amaliyot yetishmasligi, til muhitining cheklanganligi hamda xato qilishdan qo‘rqish kabi omillar to‘sqinlik qilishi mumkin.

Xorijiy til multimedia dasturlari (yoki xorijiy til dasturlari) deganda talabalarda va til o‘rganuvchi talabgorlarda nutq faoliyati turlarini rivojlantirish va xorijiy til aspektlarini shakllantirish, shuningdek, mazkur nutq ko‘nikmalari rivoji va talaffuz ko‘nikmalarini nazorat qilishga qaratilgan kompyuter dasturlari tushuniladi. Til multimedia dasturlari asosida axborotni taqdim etishning turli formatlari mavjud.

“Media” atamasi lotincha media – “muhit yoki axborot tashuvchisi” ma’nosini beradiki, bunda “multimedia” atamasi an’anaviy chiziqli matn, gipermatn, grafika (rasmlar va chizmalar), video va audiomateriallar kabi formatlarni anglatadi. Bundan tashqari, til multimedia dasturlarining ajralib turuvchi belgisi aniq talaba va dastur o‘rtasida (avvaldan belgilangan algoritmlar doirasida) o‘zaro ta’sirni amalga oshirish imkoniyati bilan xarakterlanadi. Zero, multimedia dasturlaridan foydalanish til o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyaga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi omildir.

Mashg‘ulotdagi ijobiy muhit va talabalarning o‘rganilayotgan fanga bo‘lgan qiziqishi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, multimedia dasturlarining o‘quv jarayonidagi roli va o‘rnini aniqlash muhim. Multimediali ta’limi yangi texnologiyalarning noyob imkoniyatlaridan foydalanadi va ularni an’anaviy ta’limga faqat zarur bo‘lganda qo‘shadi. Multimedia darsliklari ifodali, badiiy va texnik imkoniyatlarning keng doirasiga ega bo‘lib, bu o‘rganilayotgan materialga qiziqishni oshirish imkonini beradi, chunki ekranda e’tiborni boshqarish an’anaviy vositalarga qaraganda ancha oson. Multimedia muhitida o‘qish jarayonida asosiy e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan jihatlar dinamika va kompozitsiya vositalari, montaj usuli bilan ajratib ko‘rsatilishi mumkin.

O‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan dars maqsadlariga ko‘ra, e’tiborni chalg‘ituvchi jihatlar asosiy obyekt va fon obyektlari nisbati, rang kuchi, shrift yoki rang bilan ajratish kabi usullar orqali yo‘qotilishi yoki kamaytirilishi mumkin. Dars jarayonida multimedia muhitida ishlashning bir necha usullari mavjud (Qarang: 1-jadval):

Multimedia muhitining afzalligi har bir talaba mashg‘ulotda so‘zlarni to‘g‘ri o‘qishni mashq qilishi, xatolarini darhol tuzatishi va talaffuzni orfoepik me’yorlarga moslashi mumkin. Bundan tashqari, multimedia dasturlari talabalarni asosiy so‘zlar joylashgan guruhlariga yo‘naltirishi mumkin.

Ta’kidlaganimizdek, “multimedia” ingliz tilidan tarjima qilinganda “juda ko‘p vositalar” degan ma’noni anglatadi: ovoz, video, grafika (diagrammalar, fotosuratlar, rasmlar). Multimedia texnologiyasini tushuntirish va tasviriy o‘qitish usuli sifatida ko‘rib chiqish mumkin, uning asosiy maqsadi o‘quv materiallarini tarqatish orqali talabalar tomonidan ma’lumotni aniq va tez o‘zlashtirilishini ta’minlashga imkon yaratish va uning muvaffaqiyatli qabul qilinishiga ko‘maklashish, ta’lim jarayonida vizual xotirani ulash orqali samaradorlikni oshirishdan iborat.

1-jadval

Multimedia muhitida dars o‘tish usullari

№	Multimedia muhitida ishlash usullari	Mazmuni
1	Elektron resurslardan yangi materialni tushuntirish yoki o‘tilgan materialni mustahkamlashda bevosita foydalanish	Bu usul o‘qituvchiga materialni aniq va tushunarli tarzda bayon etishga ko‘mak beradi, elektron darslikdan esa, dars davomida ham, unga tayyorgarlik ko‘rayotganda ham foydalanish mumkin
2	Talabalarning mustaqil ravishda multimedia muhitida mashqlarni bajarish imkoniyatlari	Bunday usul uyga vazifa tayyorlashda amalga oshiriladi. Bu yerda animatsiyalar, video, audio, interaktiv komponentlar, rasm va jadvallar kabi barcha o‘quv materiallari foydali bo‘lishi mumkin. Tadqiqotchilar qayd etishicha, bunday mashqlar talabalarda fanga bo‘lgan qiziqishni oshiradi va ularga o‘zlarini mustaqil tadqiqotchi sifatida his qilishlariga imkon beradi.
3	Multimedia muhitidan foydalanish orqali bilim darajasi va materialni o‘zlashtirish holatini nazorat qilish	Bunday dasturiy vositalar yordamida guruh darsi deyarli individualga aylantiriladi, chunki har bir talaba o‘z ish joyida alohida topshiriqni bajaradi. Mazkur yondashuvning afzalligi – topshiriq bajarilishining dasturiy kuzatuv va o‘qituvchiga to‘g‘ri javoblar foizi haqida ma’lumot berilishi (individ yoki guruh bo‘yicha). O‘qish bo‘yicha boshlang‘ich bosqichdagi asosiy qiyinchilik – harflar va tovushlar o‘rtasidagi to‘g‘ridan to‘g‘ri moslik yo‘qligidir. Bitta harf turli pozitsiyalarda turlicha tovushlarni ifodalashi, bir tovush esa, turli harf va harfiy birikmalar bilan ifodalanishi mumkin. Bu ingliz tilidagi ko‘plab istisnolar bilan birga o‘qish texnikasini o‘rganish jarayonini murakkablashtiradi va sekinlashtiradi.

Quyida talabalarda to‘g‘ri va aniq talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha tashkil etiladigan multimedia dasturlarining didaktik xususiyatlari hamda ularga mos metodik funksiyalarni taklif etamiz (Qarang: 2-jadval):

2-jadval

Talabalarda talaffuz ko‘nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish: multimedia dasturlarining didaktik xususiyatlari va metodik funksiyalari

Talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha multimedia dasturlarining didaktik xususiyati	Talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirish va rivojlantirish bo‘yicha multimedia dasturlarining metodik funksiyasi
Interfaollik	Talaffuz bo‘yicha multimedia dasturlari foydalanuvchiga materialni o‘rganish tezligi va yo‘nalishini mustaqil ravishda belgilash imkonini beradi.

Ko‘p darajalilik	Zamonaviy kompyuter texnologiyalari bitta dastur doirasida fonetik va ritm-intonatsion materialning turli murakkablik darajalarini uyg‘unlashtirishga, shuningdek, chet tilini turli darajada biladigan talabalarning bir xil dasturni ishlatishiga imkon yaratadi.
Multimediaviylik	Zamonaviy talaffuz bo‘yicha multimediya dasturlar tarkibida talaffuz qoidalarining matnli tushuntirishlari va tegishli mashqlar bilan bir qatorda video va audio fayllar, grafiklar, sxemalar va rasmlar mavjud. Bularning barchasi talabalarga mavjud me‘yorlarga muvofiq til o‘rganuvchilar talaffuzini maksimal darajada taqlid qilishni o‘rgatishga qaratilgan.
Tizimlilik	Talabalarda fonetik va ritm-intonatsion nutq ko‘nikmalarini shakllantirish uchun til materiali dasturlarda tizimli tarzda – soddadan murakkabga tomon berilgan. Demak, didaktikaning bosqichlilik va yetarlilik tamoyiliga muvofiq talabalar o‘zlashtirilgan materialdan yangi mavzularga o‘tishlari mumkin.
Avtonomlik	Talaffuzni o‘rgatuvchi zamonaviy dasturlarning aksariyati mustaqil ishlaydi va qo‘shimcha resurslardan foydalanishni talab qilmaydi. Ular tarkibiga tavsifiy talaffuz qoidalari, talaffuz namunalari tasviriy, video va audio shakllari, fonetik hamda ritm-intonatsion mashqlar kiradi. Foydalanuvchi o‘zi talaffuzini yozib olishi, shuningdek, “etalon” bilan solishtirishi mumkin.

Multimedia ta’lim resurslarining imkoniyatlarini tahlil qilishda metodik materiallarning, aksariyat hollarda, universal ekanini kuzatamiz. Bu esa, ularni an’anaviy qog‘oz darsliklardan ajratib turadi. Zotan, multimediaviy vositalar quyidagi asosiy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi:

yangi axborot makonida material tanlash ko‘nikmasi;

materialni qayta ishlash va rasmiylashtirish (referat, esse, maktub, muammo haqida yozuvlar, ko‘pkodli yozuvlar, prezentatsiyalar va h.k.).

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ingliz tilini o‘qitishda talabalarda talaffuz ko‘nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirishning metodik ta’minoti”** deb nomlanadi. Mazkur bobda ingliz tilini o‘qitishda talabalarda talaffuz ko‘nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish va rivojlantirish mazmuni, o‘qitish jarayonida talabalarda talaffuz ko‘nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish texnologiyalari izohlangan. Shuningdek, ushbu bobda ingliz tilini o‘qitishda talabalarda talaffuz ko‘nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish va rivojlantirishning takomillashtirilgan modeli ishlab chiqilgan.


Ta’limning zamonaviy tizimida multimedia vositalari butun o‘quv jarayoni motivatsiyasini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Bundan tashqari, multimedia vositalari orqali faol muloqot yo‘li bilan katta miqdordagi axborot hajmini o‘zlashtirish, ta’lim oluvchilarda oddiy o‘quv qo‘llanmani o‘qishga qaraganda ko‘proq qiziqish uyg‘otadi. Maxsus o‘rgatuvchi dasturlar yordamida ta’lim oluvchining o‘zi o‘z qo‘li bilan o‘rganilayotgan fan doirasida ma’lum jarayonlarni modellashtirishi va o‘z xatti-harakatlari natijalarini kuzatishi hamda ko‘rganlarini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Multimedia vositalari ta’lim oluvchilar motivatsiyasiga ta’sir ko‘rsatadi, u o‘rganilayotgan fanning amaliy ahamiyatini ochib beradi va qiziqarli masalalarni qo‘yish hamda ichki potensialni aniqlash uchun ulkan imkoniyatlar taqdim etadi.

Multimedia vositalarining o‘yinli imkoniyatlari haqida ham unutmash kerak, zero, maxsus tematik o‘yinlar ham qudratli motivator hisoblanadi va shu darajada maxsuslashtirilgan dasturlar singari ijobiy natijaga olib keladi.

Ingliz tili o‘qituvchisi 60110900 – xorijiy til va adabiyoti ta’lim yo‘nalishi talabalariga ingliz tilini o‘qitishda, xususan, “O‘qish va yozuv amaliyoti” hamda “Til aspektlari amaliyoti” fanlarini texnik vositalarsiz qanchalik mohirona bayon etmasin, talaba bu bo‘lim mavzularni, qonunlari, unda yuz beradigan hodisa va jarayonlarni operativ anglab olishi yoki xotirasida saqlashi qiyin. Demak, multimedia vositalari va virtual ishlanmalar asosida sodir bo‘ladigan jarayonlarga oid amaliyotlarni bajarib, talaffuz ko‘nikmalarini rivojlantirganda, o‘qitishning samarasi yanada oshadi. Shu munosabat bilan ingliz tilini o‘qitishda talabalarda talaffuz ko‘nikmalarini multimedia vositalari asosida shakllantirish o‘rganilayotgan qonuniyatlarning mohiyatini ochib berish va o‘qitish samaradorligini oshirishda keng imkoniyat yaratadi.

Keltirilgan mulohazalarni e‘tiborga olgan holda 60110900– xorijiy til va adabiyoti ta’lim yo‘nalishida o‘qitiladigan “O‘qish va yozuv amaliyoti” hamda “Til aspektlari amaliyoti” fanlari bo‘yicha tashkil etiladigan amaliy mashg‘ulotlarda foydalaniladigan multimedia vositalarining quyidagi didaktik imkoniyatlarini aniqladik (Qarang: 1-rasm):



“1-rasm”. Amaliy mashg‘ulotlarda foydalaniladigan multimedia vositalarining didaktik imkoniyatlari

Zotan, o‘quv qo‘llanmalardagi materiallardan ko‘ra multimedia vositalaridan kengroq foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan, quyidagi saytlarda taqdim etilgan materiallardan foydalanish mumkin (Qarang: 3- jadval):

3-jadval

Oliygozlarda chet tilini o‘qitishda multimedia vositalaridan foydalanish imkoniyatlari

Sayt manzili	Mazmuni va qo‘llanilishi
englsecrets.ru	Ingliz tili grammatikasi va leksikasini aniqroq tushuntiradigan, ko‘rgazmali videodarslar tizimi
esl-lab.com	Tinglab tushunishga mo‘ljallangan katta hajmdagi audio fayllar to‘plami, matnlar va dialoglarni tushunish mashqlari
native-english.ru	Grammatik qo‘llanma, testlar, idiomalar va maqollar lug‘ati, qo‘shiqlar, she‘rlar va boshqa materiallar
ted-talks.online	Fan, texnika, ta‘lim, ekologiya kabi dolzarb mavzularda ingliz tilidagi Stand Up chiqishlari
thefamouspeople.com	Mashhur olimlar va muhandislarning tarjimai holi hamda ularning ixtirolari haqida ma‘lumot beradi.
usefulenglish.ru/idioms	Idiomalar va frazeologik fe‘llarni o‘rganishga mo‘ljallangan sayt. Og‘zaki va yozma nutqda ishlatiladigan misollar asosida faoliyat yuritadi.

Tadqiqotlar ko‘rsatadiki, aksariyat talabalar an‘anaviy ingliz tili darslaridan charchagan va yangi uslubda ta‘lim olishga qiziqish bildirmoqda, ular ta‘lim jarayonida qo‘llanilayotgan kompyuter texnologiyalariga ijobiy munosabatda bo‘lib, bunday texnologiyalar haqiqatan ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Chunki multimedia vositalari ingliz tilini o‘qitishda boshqa o‘quv vositalariga nisbatan ko‘plab ustunliklarga ega (Qarang: 2-rasm):

Modullilik -o‘quv jarayonini alohida qismlar (modullar) orqali tashkil etish imkoniyati	Tezkorlik - zarur ma‘lumotlarni tezda topish va foydalanish imkoniyati	Cheksiz material hajm - juda katta hajmdagi o‘quv resurslariga kirish imkoniyati
Intellektual imkoniyatlar -o‘quv jarayonida sun‘iy intellekt va aqlli tizimlardan foydalanish imkoniyati	Kommunikativlik - talabalarni faol muloqotga jalb etishi	Interaktivlik - ikki tomonlama faol muloqotni ta‘minlashi
Tarmoq orqali hamkorlik -internet va tarmoqlar yordamida talabalar hamda o‘qituvchilar o‘rtasida o‘zaro hamkorlik	Amaliy yo‘naltirilganlik - olingan bilimlarni amaliy faoliyatda qo‘llash imkoniyati	Zamonaviy taqdimot uslubi - materialni qiziqarli, innovatsion va vizual shaklda taqdim etish

“2-rasm”. Multimedia vositalaridan foydalanishning afzalliklari

Tadqiqot mavzusi doirasidagi izlanishlarimiz asosida quyidagi interfaol metod va texnologiyalardan foydalanishni tavsiya qilamiz:


“Jamoaviy o‘yinlar musobaqasi” (Team Games Tournament – TGT) metodi ilk bor amerikalik pedagog olim Robert E. Slavin tomonidan ishlab chiqilganki, u hamkorlikda o‘qitish tizimining (“Student Team Learning”) muhim komponentlaridan biri hisoblanadi. Metodning asosiy g‘oyasi – bilim olish jarayonini raqobat va hamkorlikni uyg‘unlashtirgan holda tashkil etishdir. Talabalar, avvalo, bilim darajasi aralashtirilgan “uy jamoalari”da mavzuni o‘rganadilar, keyinchalik esa, bilim darajasiga qarab tuzilgan “turnir jamoalari”da savollarga javob berish orqali bellashadilar. Natijalar uy jamoasining umumiy hisobiga qo‘shilib, yakuniy muvaffaqiyat individual emas, balki jamoaviy intilishga asoslanadi.

“Guruh tadqiqoti” (Group Investigation) metodi. Ushbu metod mohiyatiga ko‘ra, talabalar kichik guruhlarda o‘zlari tanlagan mavzu bo‘yicha tadqiqot olib boradilar: rejalashtirish, ma‘lumot yig‘ish, tahlil qilish va yakuniy taqdimot qilish bosqichlarida faol ishtirok etadilar. Bu jarayon tayyor bilimlarni egallashdan ko‘ra mustaqil izlanish, tanqidiy tafakkur, ijodiy yondashuv va jamoaviy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

“Aylana jadvallar” (Round Table) texnikasi hamkorlikda o‘qitishning yozma muloqotga asoslangan samarali metodlaridan biri bo‘lib, kichik guruhlarda (odatda 3-4 kishi) amalga oshiriladi. Ushbu yondashuvda talabalar varaqaga qisqa so‘z yoki jumla shaklida javob yozib, uni guruh bo‘ylab soat yo‘nalishi bo‘yicha navbatma-navbat uzatadilar. Natijada barcha ishtirokchilar teng darajada qatnashadi, turli nuqtai nazarlar jamlanadi va fikrlar tartibli ravishda rivojlanadi. Metodning afzalliklari sifatida talabalarda mantiqiy va izchil fikrlashni shakllantirishi, yozma nutqni rivojlantirishi, brainstorming va ijodiy yozuv faoliyatlarini qo‘llab quvvatlashi, hamda hamkorlikda fikr almashishni rag‘batlantirishi ko‘rsatiladi. Shuningdek, ayrim cheklovlari ham mavjud: talabalar oldingi yozuvlarga moslashishda qiyinchilikka duch kelishi, fikr bildiruvchi passiv bo‘lsa jarayonning samaradorligi pasayishi mumkin. Onlayn sharoitda bu metod ta‘lim boshqaruvi tizimlari (LMS), jamoaviy yozuv platformalari yoki forumlar orqali muvaffaqiyatli qo‘llanadi hamda asinxron muloqotni rivojlantiradi.

“Aql xaritasi” (Mind Map)ni tuzish texnikasi. Birinchi marta bu atama ingliz psixologi, eslab qolish texnikasi muallifi Toni Byuzenom tomonidan taklif qilingan. Xarita – bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan va muayyan umumiy muammo bilan birlashtirilgan turli g‘oyalar, vazifalar, tezislarni vizual tarzda namoyish etadigan diagramma. Aqliy xarita butun vaziyatni bir butun sifatida qamrab olish, shuningdek, bir vaqtning o‘zida katta hajmdagi ma‘lumotlarni ongimizda saqlash imkonini beradi.

